

## O'ZBEK TILIDA YUKLAMALAR TASNIFI VA NUTQDAGI VAZIFASI HAQIDAGI QARASHLAR

Rustamova Iqbol Aktamovna

SamDU 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: prof. R.R.Sayfullayeva

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek tilshunosligida yuklamalarning tasnif qilinishi, tilshunoslar tomonidan ushbu so'z turkumiga berilgan ta'riflar hamda bu yordamchi vositaning nutqdagi vazifasi haqidagi turlicha qarashlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Yordamchi so'z, yuklama, qo'shimcha yuklama, so'z yuklama, nisbiy yuklama, sof yuklama.

**Абстрактный:** В статье описывается классификация предлогов в узбекском языкоznании, определения, данные лингвистами этой группе слов, и различные взгляды на функцию этого вспомогательного средства в речи.

**Ключевые слова:** Вспомогательное слово, загрузка, дополнительная загрузка, загрузка слова, относительная загрузка, чистая загрузка.

**Abstract:** The article describes the classification of prepositions in Uzbek linguistics, the definitions given by linguists to this word group, and different views on the function of this auxiliary tool in speech.

**Key words:** Auxiliary word, loading, additional loading, word loading, relative loading, net loading.

Yordamchi so'z turkumlaridan bo'lgan yuklamalar matn tarkibida kelib, so'z yoki gap mazmuniga qo'shimcha ma'no jilolarini beruvchi so'z yoki qo'shimcha ko'rinishidagi yordamchi vositalardir. O'zbek tilining izohli lug'atida unga shunday ta'rif beriladi: "Mustaqil so'z yoki gapga turli qo'shimcha ma'no berish yoki turli grammatik munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'z yoki qo'shimcha".<sup>1</sup>

Adabiyotlarda yuklama haqidagi quyidagi ta'riflar uchraydi:

«Yuklamalar ayrim so'z yoki gapga turli ma'no ottenkasi berish uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlardir».<sup>2</sup>

«Yuklama gap mazmuniga har xil qo'shimcha ma'no kiritish, ayrim gap bo'laklarini kuchaytirish uchun xizmat qiladi».<sup>3</sup>

«Yuklamalar yordamchi so'zlar razryadiga taalluqli bo'lib, ayrim so'z yoki gap bo'laklaridan biri bilan ishlataladi va fikrning ba'zi modallik xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi». (M.Sodiqova, 1966.)

«Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no jilosi berish uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar yuklamalardir». (Sh.Shoabdurahmonov, 1975)

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати А.Мадвалиев таҳрири остида (2006-2008) [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)

<sup>2</sup> Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Тошкент: Ўқитувчи. 1980. – 448 б.

<sup>3</sup> Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 400 6.

«Ayrim so‘z, so‘z birikmasi yoki butun gapga turli modal ma’no qo‘sadigan, so‘z o‘zgarish xususiyati bo‘lmagan so‘zlar yuklama deb ataladi». (S.Usmonov, 1978.)

«Ayrim so‘z yoki gapga qo‘sishimcha ma’no berish uchun qo’llanadigan yordamchi so‘zlar yuklama deyiladi». (Sh.Shoabdurahmonov, 1980.)

«Yuklama har xil qo‘sishimcha ma’no ifodalash uchun xizmat qiladi». (U.Tursunov, 1992.)

«Mustaqil so‘z va gaplarga qo‘sishimcha ma’no beradigan yordamchilar yuklama deyiladi». (Ona tili darsligi. 6-7-sinf. 1985, 1990, 1995.)

«Yuklamalar so‘zlarga yoki gapga so‘roq, ta’kid, kuchaytirish, ayirish, chegaralash, o‘xshatish, qiyoslash kabi qo‘sishimcha ma’nolar kiritishga xizmat qiladi». (H.Ne’matov, 2000.)

« Yuklamalar so‘z yoki gapga so‘roq, ta’kid, kuchaytiruv, ayirish, chegaralash o‘xshatish kabi qo‘sishimcha ma’no beradi».<sup>4</sup>

Yuklama haqidagi turli adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni qarab chiqib, so‘nggi keltirilgan malumotlar nisbatan to‘liq yuklamaning ta’rifini yoritib bera olgan deyishimiz mumki. Negaki, oxirgi keltirilgan ta’riflarda yuklamalarning bajaradiga vazifasi va ifodalanishi , ya’ni so‘z yoki qo‘sishimcha ko‘rinishida bo‘lishi aytilgan.

Yuqoridagi adabiyotlarda yuklamalar to‘g‘risida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib tilshunosligimizda bugungi kunda yuklamalar tuzilishiga ko‘ra ikki xilga :

1) qo‘sishimcha shaklidagi yuklamalar; 2) so‘z shaklidagi yuklamalarga ajratilgan deyishimiz mumkin. Ammo R.Sayfullayeva va boshqalar muallifligida yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili darsligi”da esa yuklamalarni tuzilishiga ko‘ra uch turga ajratib ko‘rsatadi. Yuklama shakliy jihatdan uch xil ko‘rinishiga ega:

- 1.Qo‘sishchasimon yuklama ([ -mi], [ -chi], [ -a]. [ -ya]).
- 2.Sof yuklama ([xuddi, [faqat], [axir] ... ).
- 3.Nisbiy yuklama ([yolg‘iz. [ba‘zan], [tanho], [bir] ... ) kabi.<sup>5</sup>

Bu yerda nisbiy yordamchi so‘z atamasi ostida boshqa turkumga mansub bo‘lgan so‘zning yordamchi vazifasida qo’llanilishi yoki tabiatida «shakldoshlik» mavjud bo‘lgan birlik tushunilishi aytilgan. Masalan, (yolg‘iz) sifat turkumiga oid so‘z yuklama o‘rnida ( Yolg‘iz senga suyanaman) ishlataladi deyilgan. Bu darslikda so‘z ko‘rinishidagi yuklamalarning o‘zini ikkiga (sof va nisbiy) ajratib berishgan. Boshqa hozirgi o‘zbek adabiy tili darsliklarida esa ularni umumiy so‘z yuklamalar nomi ostida berib o‘tishgan.

Tilshunoslar orasida so‘z turkumlari ichida eng munozaraga sabab bo‘luvchilardan biri, shubhasiz, yuklamadir. -ki, -chi, -da, -a(-ya), -u(-yu), -mi, -oq(-yoq), -gina(-kina, -qina), axir, hatto, nahot, faqat kabi qator yuklamalar mavjudki, ularning so‘z yoki so‘z emasligining o‘ziyoq davomli munozaralar uchun asos bo‘lib kelmoqda.

Shuningdek, -xon, -oy, -bek, -jon, -aloq, -choq kabi qo‘sishimchalar ham mavjud bo‘lib, odatda, nokategorial atamasi bilan izohlab kelinuvchi bu xil birliklarning til tizimidagi

<sup>4</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo’llanma. - T., «Fan va texnologiya., 2009. - 277 b.

<sup>5</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo’llanma. - T., «Fan va texnologiya., 2009. - 278 b.

mavqeyini aniqlash ham bevosita yuqorida qo'yilgan savollar yechimi bilan bog'lanadi qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamalar ustida turli-xil qarashlar mavjud. Sh.Shahobiddinova -jon, -xon, -oy, -cha, -chak-(a)loq, -choq kabilarni yuklamalar qatoriga qo'shish mumkinligini aytgan.<sup>6</sup>

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi yuklamalarni Sh.Shoabdurahmonov maxsus tadqiq etgan. Sh.Shoabdurahmonov 1957 yilgi nashrda -gina yuklamasi haqida:

«a) ot, olmosh, son, -(i)b li ravishdosh va ko'makchilardan so'ng kelib ayirib ko'rsatish, chegaralash ma'nosini anglatadi: ...shu ko'chanigina «kamennaya» deyishadi.

b) holat ravishlaridan so'ng kelib, harakatni ayirib ko'rsatadi: Shirintoy salqinga o'tib, savatni erga ohistagini qo'ydi.

v) aniq fe'llardan so'ng kelib, harakatni ayirib ko'rsatish mazmunini va shu bilan birga degan ma'noni anglatadi: Salim o'qiydigina emas, o'qitadi ham.

Eslatmalar:

1)-gina (-kina, -qina) sifatlarga qo'shilib kelganda, yuklama hisoblanmaydi. Bunday choqda ularni «subyektiv baho» affaksi deb qaramoq kerak.

2)otlarga qo'shilib kelib, erkalash, kichraytirish ma'nosini anglatmog'i ham mumkin. Bunday choqda u urg'u oladi va affiks hisoblanadi. O'zidan keyin egalik ham qabul qiladi: bolaginam kabi».

Sh.Shoabdurahmonov 1975, 1980 yilgi nashrlarda:

«-gina yuklamasi:

a) mustaqil so'zlar (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish va ayrim fe'l formalari hamda ayrim ko'makchilar) bilan, tufayli, uchun va sh.k.dan so'ng kelib, ayirib ko'rsatish, chegaralash ma'nolarini bildiradi: So'nagul arzon bo'lsa ham shinamgina past poshnali bir tuqli olib kiydi.

b) predmet yoki harakat belgisini bildiruvchi so'zlardan so'ng kelib predmet yoki harakat belgisini ayirib ko'rsatish bilan birga o'sha belgida kamlikni, kuchsizlikni ham ifodalaydi. Shipi past, devorlari yupqa, torgina do'konxona. O'zi ham ko'rkmangina».

Bu o'rinda sifatlardagi shakl yasovchimi? Yuklama deb qaralmayaptimi? Negaki boshqa adabiyotlarda (1957 y., Sh.Shoabdurahmonov.) sifatlardagi -gina yuklamaga kiritilmagan-da! 1966 yilgi nashrda M.Sodiqova: «Sifatlarga qo'shilib kelgan -gina yuklama hisoblanmaydi, bunday choqda ularni subyektiv baho ifodalovchi affiks deb qaramoq kerak. Odatta, yuklamalar so'z tarkibida hamma xildagi affikslardan keyin keladi» deb sifatlardagi -gina shaklini yuklama sanamaydi.

Tilimizda yuklamalar mavzusida alohida qilingan tadqiqotlar ham bor. O.Bozorov «O'zbek tilida yuklamalarning semantik-funksional xususiyatlari» nomli nomzodlik dissertasiyasini himoya qilgan. O.Bozorov ushbu nomzodlik dissertasiyasida yuklamalar sirasiga quyidagilarni kiritadi: -ki, da, -u(-yu), ham, -ku, -mi, -chi, -a(-ya), balki, emas(mas), faqat, esa, bo'lsa, na...na, tugul, negaki, sababki, nega desang, bo'lmasa, yo'qsa, aksincha, -oq(yoq), -gina, -dir, -gin, -in, -cha, qip-, yop-, (yap-), kap-, xolos, naq, ayni, qoq, zora, shoyad, koshki, koshki edi (koshkiydi), qani endi, qani edi (qaniydi), ishqilib, hatto, aqalli

<sup>6</sup> Шаҳобиддинова Ш. Айрим қўшимчаларнинг мавқеи хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000. №5. – Б.27

(loaql), nahot, nahotki, oxir, yana, tag'in, to, agar, mabodo, basharti, bordi-yu, garchand, garchi, go'yo, xuddi, bamisoli, albatta, baribir, demak, xullas, aytmoqchi, aytganday, aytgandek, ayniqsa, xususan, atigi, nihoyati, avvalo, avvali, avvalambor, hech, sira, aslo, mutlaqo, zinhor, juda, eng, g'oyat, nihoyatda, o'lgur, tushgur, tushmagur, qurgur, bo'lgani, bo'ladimi, bo'lsa ham, boringki, qo'yingki, qo'ying-chi, kel (ke), keling, kelinglar, kelib-kelib, deyman, degin, deng, aytginaytgin, bildingmi, bilasizmi, yolg'iz, naq, yaxshisi, bir, biringchidan, ikkinchidan, kimsan, mana, ana, bu, shu, nima, qani, o'zi, qanday, -e(e), -ay, -ey, ha, xayriyat, xayriyatki, xo'sh, asli (aslida), afsus (afsuski), taajjub (taajjubki), bor, yo'q, bormi, bor-yo'g'i, tim, liq, lim, g'irt, qir, shir, g'arq, jiqqa.

Bu borada yana Z.Isoqov ham tadqiqot olib borgan. U «O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro munosabati va unda yuklamalarning o'rni» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U yuklamalar sirasiga -ki, -ku, -da, -u(-yu), ham, -mi, -chi, -a(-ya), faqat, na... na, tugul, -oq(-yoq), -gina, -dir, -gin, qoq, aqalli, nahot, nahotki, agar, mabodo, basharti, atigi, nihoyati, tim, liq, lim, g'irt, g'arq, jiqqa, -jon, -oy, -xon, -bek, -poshsho, - bonu, xuddi, naq, naqadar kabilarni kiritib, quyidagi semantik guruhlarga ajratadi: 1) kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari: -ki, -da, -u(-yu), -a(-ya), aqalli, ham, -ku, naqadar, atigi, nihoyati, tim, liq, lim, g'irt, g'arq, jiqqa; 2) ayiruv yuklamalari: faqat, -gina; 3) taajjub yuklamalari: nahot, nahotki; 4) shart yuklamalari: agar, mabodo, basharti; 5) sub'ektiv baho yuklamalari: -jon, -oy, -xon, -bek, -poshsho, -gin; 6) inkor yuklamasi: na... na, tugul; 7) so'roq yuklamalari: -chi, -mi; 8) aniqlov yuklamalari: xuddi, naq, qoq; 9) gumon yuklamasi: -dir. Olim yana «O'zbek tilining izohli lug'ati»da (1981) yuklama sifatida berilib, boshqa ilmiy manbaalarda uchramagan e, xo'sh, ha, ey, bu, bor-yo'g'i, ana, oriy, tugul, aksincha, xolos, yana, tag'in, zora, zoraiki kabi yuklamalarni sanaydi va lug'atdagi o'z, qani, shu, mana, kimsan, bir, ayni, aqalli, qoq kabi so'zlarni yuklamamalik xususiyatlarini tahlil qiladi.

Yuklamalar presuppozitsiyasi bo'yicha U.Rahimov “O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ushbu ishda presuppozitsiya ifodalovchi ham, emas, faqat, yana yuklamalar kengroq yoritilgan.

Yuklamalar rus tilshunosligida ham bat afsil o'rtanilgan. Bu borada T.M.Nikolaevanig yuklamalar tadriji borasidagi monografiyasidan keng ma'lumot olish mumkin. Bu so'zlar xususida M.Lomonosov ham to'xtalib o'tgan. A.Shaxmatov yuklamalarni sintaktik ob'ektida o'rganish tarafdori bo'lgan. V.Vinogradov yuklamalarni ekspressiv-stilistik funksiyalariga alohida urg'u bergen. U yuklamalar qatoriga yana bog'lovchilarni, predloglarni ham so'zlarni kiritgan. F.F.Fortunatov ham yuklamalarning sintaktik xususiyatiga alohida e'tibor qaratgan. Rus tilshunosligida asosan yuklamalar bahsida A.Shaxmatov va F.Fortunatovlar fikri tayanch hisoblanadi. XX asrda turkologiyada ham yuklamalartadqiqot ob'ektiga aylangan. Jumladan, F.Kenjebaeva qozoq tilidagi, F.Zeynalov ozarbayjon tilidagi, K.Amiraliev qozoq va qoraqlpoq tilidagi, K.Axmerov boshqird tilidagi yuklamalarni tadqiq etgan. Umuman, yuklamalar barcha ilmiy manbalarda so'zlarga yoki gapga so'roq, ta'kid, kuchaytirish, ayirish, chegaralash, o'xshatish, qiyoslash kabi qo'shimcha modal ma'no beruvchi yordamchi so'zlar deya talqin etilgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tili darsliklarida yuklamalar quyidagicha tasnif qilingan:

1. So'roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a(-ya).
2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: -ku, -u(-yu), -da, -oq(-yoq), -ki, -kim, axir, hatto, hattoki, nahotki, tim, shir, g'irt, liq, lim, g'raq, jiqqa.
3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: -gina (-kina, -qina), faqat, faqatgina, yolg'iz.
4. Aniqlov yuklamalari: xuddi, naq.
5. Guman yuklamasi: -dir.
6. Inkor yuklamasi: na... na. Xulosa o'mnida shuni aytishimiz kerakki, hozirgi o'zbek tilida yuklamalar matnga qo'shimcha emotsional-ekspressiv jilo berishga xizmat qiluvchi muhim vositalardir.